XI-XII ASRLAR O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA ILK NA’TLAR VA ME’ROJNOMALAR

РАННИЕ НААТЫ И МИРАДЖНАМЕ В УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

THE FIRST NA'TS AND MI'RAJNAMAS IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE

Olimova Dildora Baxtiyorovna
Renessans Ta’lim Universiteti, filologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Olimova Dildora Bakhtiyorovna
Renaissance Education University, Lecturer of the Department of Philology
PhD in Philological Sciences
Олимова Дилдора Бахтиёровна
Университет образования Ренессанс, Преподаватель кафедры Филологии
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
E-mail: __dilyarahimova86@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4212-2256

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatidagi ilk na’tlar, vasf va me’rojnoma na’tlar, me’roj ta’rifi va tavsifi hamda bu boradagi an’analar haqida so‘z yuritiladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” hamda Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonlaridagi na’tlar o‘zbek she’riyatidagi ilk na’tlar sifatida tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Muhammad (s. a. v.), Qur’oni karim, komil inson, vasf va me’rojnoma na’tlar, me’roj, uruj, Jabroil, shafoat, diniy-irfoniy.

Annotation. The article analyzes the first nats of Uzbek poetry, wasf nat and mirajname, the definition and description of miraj, and also discusses these traditions.The poems of Yusuf Khosa Khadzhib “Kutadgu bilig” and Adib Ahmad Yugnaki “Khibat ul-khakoyik” are analyzed as the first nats in Uzbek poetry.

Keywords: Muhammad (peace be upon him), the Holy Quran, the perfect man, wasf nat and mirajname nat, miraj, uruj, Jabrail, shafaat (intercession), religious and mystical.

Аннотация. В статье рассматриваются первые наты узбекской поэзии, наты васф и мираджнаме , определение и описание мираджа, а также идёт речь об этих традициях. Анализируются поэмы Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу билиг» и Адиба Ахмада Югнаки «Хибат уль-хакойик» как первые наты в узбекской поэзии.

Ключевые слова: Мухаммад (мир ему и благословение Аллаха), Священный Коран, совершенный человек, наты васф и наты мираджнаме , мирадж, урудж, Джабраил, шафаат (заступничество), религиозно-мистический.

Musulmon Sharqi, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotini Muhammad payg‘ambar (s. a. v.) timsoli tasvirisiz, hadislari targ‘ibisiz tasavvur qilishning aslo imkoni yo‘q. Chunki u bashariyatning oxirgi payg‘ambari Muhammad (s. a. v.), Qur’oni karim nozil qilingan shaxs, Odam Ato yaratilganidan to qiyomatga qadar eng komil inson sifatida ulug‘lanadigan zoti sharif hisoblanadi.

Muhammad (s. a. v.) ta’rifida yozilgan asar, uning bir parchasi *“na’t”* deyiladi. Shuning uchun biror-bir shoirning o‘z asarida payg‘ambar (s. a. v.) hadislaridan namunalar keltirib, uning mazmunini sharhlashi yoxud shunga monand g‘oyalarni ilgari surishi hali na’t emas. Na’tda, albatta, payg‘ambar (s. a. v.) maqtalishi shart qilib qo‘yiladi.

Mustaqillik yillari o‘zbek adabiyotshunosligida *“me’rojnoma”* degan istiloh iste’molga olib kirildi. Adabiyotshunos Z. N. G‘aforovaning “Alisher Navoiy hamd va

na’t g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahlili” [1: 2018] mavzusidagi dissertatsiyasida musulmon Sharqi mumtoz adabiyotshunosligi, jumladan, XV asr o‘zbek olimi Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asariga tayanilgan holda na’tlar ikki turga – vasf na’tlarga va me’rojnoma na’tlarga bo‘linadi [1: 2018]. Vasf na’t bo‘lishi uchun payg‘ambar (s. a. v.) ta’rifu tavsif etilishi darkor. Agar asar yoki uning bir parchasida Muhammad rasulullоh(s. a. v.)ning me’roj mo‘jizasi ta’riflansa, u me’rojnoma na’t bo‘ladi.

Ma’lumki, *“me’roj”* so‘zining ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nosi mavjud. Lug‘aviy jihatdan u *“zinapoya”, “yuqoriga ko‘tarilish”* ma’nolarini ifodalaydi. Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” kitobida bu so‘zga shunday izoh beriladi: *“Me’ r o j – zinapoya, yuqoriga ko‘tarilish, Muhammad payg‘ambar(s. a. v.)ning Alloh huzuriga yuksalishi. Emishki, farishta Jabroil Muhammad alayhissalomning oldiga jannat oti – Buroqni yetaklab kelibdi. U qanotli oq tulporga minib, Quddusga borib, o‘sha joydan ko‘kka ko‘tarilibdi. Sidrat ul-muntahoga yetgach: “Mundin nariga o‘tsam, men yonurmen”, – debdi Jabroil. Payg‘ambar (s. a. v.) esa uni ortda qoldirib, “Rafraf” bilan yana bir muddat ilgarilabdi. Xullas, Muhammad(s. a. v.)ga Tangrining taxti ko‘rinibdi. U samovotdan yetmish ming parda bilan to‘silganmish. So‘fiylar tushunchasida me’roj ruhoniy bir holdir”* (B. 253).

Haqiqatan ham, istiloh sifatida *“me’roj”* tor diniy ma’noga ega. Ya’ni u so‘nggi payg‘ambar Muhammad(s. a. v.)ning Alloh huzuriga ko‘tarilishini bildiradi. Bu ko‘tarilish kechasi yuz beradi. Shuning uchun *“me’roj kechasi”* istilohi ham ko‘p qo‘llanadi. *“Me’roj”*ni arab tilida *“uruj”* deyish ham bor. *“Me’roj”* va *“uruj”*ga bir so‘zning ikki shakli sifatida qaralishi kerak.

Na’tlar “Qur’on” oyatlari va hadislar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Professor Aftondil Erkinov bu haqda shunday deb yozadi: *“Musulmon Sharqida sharhlash (interpretatsiya) “Qur’on” tafsirlaridan boshlanadi, chunki tafsir hamisha teologik fanlar, keyingi davrlarda teosofik fanlarning ajralmas qismi bo‘lib kelgan”* [2: 17].

Ma’lumki, Qur’onda Muhammad payg‘ambar (s. a. v.) nomi atigi to‘rt martagina (3:144, 33:40, 47:2, 48:29) zikr etilgan, *“Ahmad”* ismi esa faqat bir marotaba (61:6) tilga olingan [3:2009].

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Hadis va hayot” turkumidagi “Anbiyolar qissasi” (20-juz) kitobida bunday deb yozadi:

“1. Alloh kimga osmondan xabar bersa-yu, o‘sha xabarni boshqalarga yetkazishni amr qilsa, o‘sha odam nabiy va rasuldir. Ammo boshqalarga yetkazishni amr qilmasa, u nabiydir, rasul emas.

Xulosa shuki, rasul o‘ziga kelgan payg‘ambarlikni o‘zgalarga yetkazishga amr qilingan. Nabiy esa bunga amr qilinmagan.

2. Rasul umumiy bo‘lib, farishtalardan ham, bashardan ham bo‘laveradi. Alloh taolo “Qur’on”da:

“Albatta, u hurmatli Rasulning gapidir” (“Tasvir” surasi, 19-oyat) deganda ham, Jabroil alayhissalomni iroda qilgan.

“Rasullarimiz ularni vafot ettirdi” (“A’rof” surasi, 37-oyat) deganda ham, farishtalarni iroda qilgan.

3. Rasul yangi shariat bilan keladi. Nabiy yangi shariat bilan kelmaydi. Balki oldingi shariatga amal qiladi va o‘zgalarni ham unga amal qilishga chaqiradi” [4: 8-10].

Me’roj ta’rif va tavsifiga oid ilmiy manbalarda yozilishicha, Muhammad (s. a. v.) Ka’ba yaqinida uxlab yotganida uning oldiga farishta Jabroil (a.) “Buroq” laqabli uchar ot bilan paydo bo‘lgan. Keyin birgalashib shu otga minib, Quddus sari uchishgan. Quddusda Odam (a.), Ibrohim (a.), Muso (a.), Iso (a.) bilan uchrashib, birgalikda namoz o‘qishgan. So‘ng Jabroil (a.) Muhammad(s. a. v.)ni yana otga mindirib, ko‘kka, Alloh huzuriga olib chiqadi, Haq yaratgan g‘aroyib narsalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishiga imkon tug‘diradi. Muhammad (s. a. v.) yetti qavat osmonga Jabroil (a.) bilan birga safar qiladi. Sakkizinchi va to‘qqizinchi osmonga esa u Jabroilsiz, Buroqsiz, Rafraf vositasida yolg‘iz o‘zi safar qiladi. Adabiyotshunos S. H.

Olimov Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”i ta’sirida yetti vodiy tasvirlanishini aynan ana shu me’rojda payg‘ambar(s. a. v.)ning Jabroil (a.) yo‘lboshchiligida yetti qavat osmonga chiqishi bilan bog‘laydi. Ya’ni qushlarning Hudhud pirligida yettinchi vodiygacha parvoz qilganiga me’rojni asos qilib keltirib, asarni shu asosda tahlil etadi [5: 162-183].

Tahlillarimiz ko‘rsatadiki, me’roj tasviri o‘zbek she’riyatida Alisher Navoiy ijodiga qadar ham mavjud va bu borada muayyan an’analar ham shakllangan edi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, XII asr o‘zbek shoiri Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asaridagi hadisi shariflardan misol keltirilishi va uning g‘oyasiga hamohang baytlar ijod qilinishi hali *“na’t”* degani emas.

Xo‘sh, o‘zbek she’riyatida birinchi na’tni kim yozgan?

Bu ilmiy savolga javobni, albatta, XI asr shoiri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidan izlashga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, doston muallifning nasriy “Basmala”si, ya’ni *“Bismilloh ir-rahmon ir-rahim”* sarlavhasi bilan yozilgan muqaddimasi bilan ochiladi. Unda bor-yo‘g‘i ikki jumladan iborat hamddan keyin ushbu so‘zlar keladi: *“Shuningdek, odamlar orasida sarasi (bo‘lmish) Tangrining rasuliga sonsiz salomlar bo‘lsin, (rasulning) safdoshlari (bo‘lmish) aziz va qimmatli sahobalar uzra, rizvonollohu alayhum ajmaina [ya’ni ularning barchasi uzra Tangrining roziligi yog‘ilgay]* [6: 49].

Shu jumla butun turkiy yozma adabiyotdagi ilk na’t (parcha) hisoblanadi.

Dostonning kompozitsiyasi shunday tuzilganki, ana shu nasriy muqaddima keyin she’riy tarzda davom etadi. Bu muqaddimada ham hamddan so‘ng, tabiiyki, na’t keladi. U ikki baytdangina iborat:

Saylangan rasulga durud (va) salom(lar),

Shuningdek, chahoryorlariga ham cheksiz salom(lar).

Muhammad payombar – xaloyiq boshi,

Hamma (va) barchaga u ko‘z-qoshdir [6: 51]

Shu bilan dostonning bu muqaddimasi, ya’ni maxsus kirishi tugaydi. Asosiy qism esa shundan keyin boshlanadi. Asosiy qismning ham o‘z “Basmala”si, o‘z hamd va na’ti bor. Ana shu hamd bobning oxirlariga kelib shoir payg‘ambar(s. a. v.)ni eslaydi. Aniqrog‘i, uning shafoatidan umidvorlik qiladi:

Meni sevikli payombar bilan ko‘tar,

Qiyomat kuni qo‘limdan tutuvchi qil [6: 67].

Bu me’rojnoma emas, albatta. Biroq payg‘ambarga Qiyomat kuni ummatlarning gunohidan o‘tib, shafot qilishni Alloh taolodan so‘rash huquqi unga aynan Me’roj kechasi himmat qilingan edi. Shuning uchun bu baytni, *bilvosita me’rojnoma xususiyatiga ega parcha*, sifatida baholash mumkin.

Xuddi shu xususiyatni doston asosiy qismidagi hamd bobdan keyin *“Fi fazayil in-nabi alayh is-salam” (“Payombar alayh is-salom fazilatlari borasida”)* deb nomlangan 15 baytli na’t bobda ham kuzatamiz. Unda Muhammad payg‘ambar (s. a. v.) ta’rifu tavsif etiladi. Ammo unda me’roj kechasi tilga olinmaydi. Shunga qaramay, bob so‘ngidagi ikki baytda lirik qahramon bevosita Tangriga munojot qilib, uni Qiyomatda sevikli payg‘ambar (s. a. v.) bilan birga turg‘izishni, uni qo‘ldan tutuvchi qilishini iltijo etadi:

Yo Rabb, mening ko‘nglini O‘zing ehtiyot tut,

(Qiyomatda) meni sevikli payombar bilan turg‘iz.

Qiyomatda to‘lin Oy kabi yuzini ko‘rsat,

Iloho, o‘zini (qo‘l)dan tutuvchi qil[6: 71].

Bunda ham me’roj ochiq tilga olinayotgani yo‘q. Lekin lirik qahramon payg‘ambar (s. a. v.) shafoatidan umidvorlik izhor etyapti. Shafoat mo‘jizasi esa Muhammad(s. a. v.)ga me’rojga chiqqanida in’om etildi. Demak, bu baytlarda ham bilvosita me’rojnoma xususiyati mavjud.

Ma’lumki, faqat badiiy yoki ilmiy asarlar emas, hatto, maktublarni ham hamd va

na’t bilan boshlash musulmon Sharqi xalqlari uchun muqaddas an’analardan biri hisoblangan. Bunga “Qutadg‘u bilig” dostonida ham amal qilingan.

“Elig Kuntug‘di O‘zg‘urmishga maktub yozib, yo‘llashni aytadi” deya sarlavha qo‘yilgan bobda Kuntug‘dining O‘zg‘urmishga maktubi keltirilgan. U muallifning:

Davot va qog‘oz so‘radi, maktub yozdi,

Maktub bilan ishga zamin hozirladi.

Xudo oti bilan so‘zni boshladi,

Yaratgan, parvarish qilgan, kechirgan, dedi.

Aytdi..., – [6: 501] so‘zlaridan keyin maktub matni beriladi. Lekin unda sakkiz baytli hamd bor-u, ketidan na’t keltirilmagan. Ammo dostondagi O‘zg‘urmishning bir maktubida o‘n ikki baytli hamd parchadan keyin bir baytgina na’t keladi:

Sevimli payombarga tilay ming salomimi,

U ezgu yo‘l ko‘rsatuvchi to‘g‘ri rahnamoga[6: 571].

Ma’lumki, dostonda *“She’r”* degan sarlavha ostida berilgan qismlar ham bor. Shulardan birida lirik qahramon Allohga munojot qiladi. Oxirida payg‘ambar (s. a. v.) va uning chahoryorlariga salom yo‘llashni Allohdan so‘raydi:

Payombarga tuman ming salomimni yetkaz,

O‘sha ezgu rahnamo, to‘g‘ri yo‘lboshchiga.

Hamma chahor yorlariga mendan salom

Yetkazgin, ey Xudoyim, uzluksiz (va) doim [6: 935].

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek mumtoz she’riyatining bizgacha yetib kelgan ilk namunasi bo‘lmish “Qutadg‘u bilig”da na’tning dastlabki namunalari bilan tanishamiz.

Bizgacha yetib kelgan undan keyingi doston – “Hibat ul-haqoyiq”. Bu asarning ikkinchi bobi, an’anaga ko‘ra, na’t. U besh baytdan tashkil topgan. Ularda payg‘ambar(s. a. v.)ning fazilatlari ta’rif etiladi. Birinchi baytda shoir o‘quvchiga nima haqda so‘zlamoqchi ekanini ma’lum qiladi:

Endi payg‘ambar fazlidan bir qancha so‘z tingla,

Es-hushni yetiltirib, so‘zimni anglab ko‘r [7: 7].

Keyingi baytda payg‘ambar(s. a. v.)ning xalq orasida tanlangan shaxs, kishilarning eng qutlug‘i ekani, uning tengi yo‘qligi aytiladi:

U xalqning eng tanlangani, kishilarning (eng) qutlug‘idir,

Balki, yaratilgan (banda)lar ichida uning teng-to‘shi yo‘qdir.

Uchinchi qo‘shmisra Allohning rasullari yorug‘ yuzli bo‘lishi, Muhammad (s. a. v.) esa shu yuzga ko‘z yoki ular qizil yanoq bo‘lsa, Muhammad (s. a. v.) shu yanoqdagi xol ekani qayd etiladi:

Rasullar yorug‘ yuzlidir, u esa o‘sha yuzga ko‘zdir

Yoki ular qizil yanoqdir, u esa o‘sha yanoqning (chiroyli) xolidir.

To‘rtinchi baytda bevosita payg‘ambar (s. a. v.) na’tining ahamiyatini ko‘rsatish uchun asqotadigan fikr ilgari suriladi:

Uning maqtovini aytish bilan og‘zim totli bo‘ladi,

Uning madhi tilim uchun shakar va boldir.

Ushbu na’tning oxirgi, ya’ni oltinchi baytida lirik qahramon payg‘ambar(s. a. v.)ning shafoatidan umidvorlik qiladi, shafoat esa bevosita me’roj bilan chambarchas bog‘liq masala:

Oxiratda, mungli chog‘imda qo‘limdan tutuvchimga

Bugun mendan salot va salom tegsin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek she’riyatining Xoja Ahmad Yassaviy ijodiga qadar kechgan davridayoq na’t yozish an’anasi bo‘lgan. Ammo Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” hamda Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonlarida hali Muhammad (s. a. v.) me’rojining bevosita tasviriga duch kelmaymiz. Hatto, bu ikki asarning biror yerida *“me’roj”* istilohi tilga olinmaydi ham.

Biroq bu degani, *mazkur ikki asarda me’roj tasvirlanmagan*, degan ma’noni anglatmaydi. Chunki ikki asar lirik qahramoni ham, ko‘rib o‘tilganidek, Qiyomat

kunidagi payg‘ambar (s. a. v.) shafoatidan umidvorlik izhor etadi. Shafoat esa bevosita me’rojda Alloh taoloning suyukli payg‘ambar(s. a. v.)iga inoyat etgan mo‘jizasi edi.

Demak, bu ikki asarda me’roj zimdan, ya’ni bilvosita tasvirlanadi.

Shuni aslo yoddan chiqarmasligimiz kerakki, “Hibat ul-haqoyiq” asari mazmun-mohiyati, unda ilgari surilgan g‘oyalar talqinida sho‘ro olimlari bilan mustaqillik davri tadqiqotchilari o‘rtasida keskin farq mavjud. Sho‘ro olimlari, masalan, asardagi yomonlik qilgan kishiga yaxshilik bilan javob qaytarish g‘oyasini, *xalqni hukmron sinf vakillariga bo‘ysundirish, ekspluatatsiyaga xizmat qilish,* deb talqin etishdi. Ammo mustaqillik davri olimlari Yugnakiyning xuddi shu pozitsiyasiga tamoman boshqa rakursdan turib yondashdi. N. Mallayev shoirning ilm-ma’rifat haqidagi fikrlarini keltirib, tahlil etar ekan, jumladan, shunday deb yozadi: *“Biroq u baxtni ilm va baxtsizlikni johillik bilan bog‘lab, reaksion guruhlarning ilm-fanga va ilm-fan ahliga qarshi vahshiyona kurashini tanqid qilmadi, nodonlik feodal-klerikal jamiyat tuzumining oqibati bo‘lib, bu jamiyat ko‘pchilikni ilm-ma’rifat boyliklaridan mahrum qilganini tushunmadi”* [8: 142]. Albatta, bu olim Ahmad Yugnakiy asarining ijobiy jihatlarini to‘g‘ri ko‘rsatgan. Biroq, shunga qaramasdan, sho‘ro davri hukmron mafkurasiga bo‘ysungan holda o‘rni-o‘rni bilan shoirga ojizlik tamg‘asini bosishni yana davom ettirib, shunday yozadi: *“Hibat ul-haqoyiq”dagi progressiv qarashlar bilan reaksion tushunchalar o‘rtasidagi kurash faqat Ahmad Yugnakiyning dunyoqarashidagi ziddiyatlar va uning ichki dramasi bo‘lmay, balki, birinchi navbatda, doston yaratilgan davr qarama-qarshiliklarining in’ikosidir. Doston Ahmad Yugnakiyning mana shu qarama-qarshiliklar bilan yashaganini, uning reaksion qarash va tushunchalarni butunlay uloqtirib tashlashga ojiz bo‘lganini, lekin, shunga qaramay, ilm-ma’rifat va yaxshi xulq-odobning jarchisi ekanini ko‘rsatadi”* [8: 147].

R. Vohidov, H. Eshonqulovlar sho‘ro davrida yaratilgan o‘zbek adabiyoti tarixiga doir darsliklar, jumladan, Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi”

darsligi haqida ham so‘zlab, jumladan: “*Mazkur darsliklarda ...sho‘ro mafkurasining “quyuq changi” o‘z asoratini qoldirgan*” [9: 4], – deb yozishadi.

Mustaqillik yillaridagina Ahmad Yugnakiy asariga xolis ilmiy munosabat shakllandi. Xususan, “Hibat ul-haqoyiq”ning diniy-irfoniy mohiyatini haqqoniy tarzda ilmiy yoritish imkoniyati yuzaga keldi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ a f o r o v a Z. N. Alisher Navoiy hamd va na’t g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahlili. – Filol. f. b. f. d-ri diss. avtoref. – Samarqand: Nashriyotsiz, 2018.

2. E r k i n o v A. S. Istochniki interpretatsii “Xamsa” Alishera Navoi v XV – XX vv. – Avtoref. diss. ... d. Filol. n. – Tashkent: Bezizdatelstvo, 1998.

3. Qur’oni karim. Ma’nolarining tarjimasi va tafsiri (Qayta ishlangan 3-nashri). Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz M a n s u r. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009.

4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Anbiyolar qissasi. 20-juz.T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2008.

5. O l i m o v S. H. “Lison ut-tayr”ning qiyosiy poetikasi: sintez, naziraviylik va tarjimaviylik. – Filol. f. d-ri ... diss. – Samarqand: Nashriyotsiz, 2023.

6. Yusuf Xos H o j i b. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1972.

7. Adib Ahmad Yu g n a k i y. Hibat ul-haqoyiq. Qosimjon Sodiqov transkripsiyasi, talqini va tahlilida. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

8. M a l l a ye v N. O‘zbek adabiyoti tarixi. K. 1. XVII asrgacha. Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

9. V o h i d o v R., E sh o n q u l o v H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirigacha. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006.